

UDC: 343(042)(575.1)
 ORCID: 0000-0003-3384-9994

DAVLAT XIZMATCHISINING MULKIY MANFAATDORLIGI BILAN BOG'LIQ JINOVATLARNING OBYEKTI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Djalilov Furkat Zakirovich,
 Toshkent davlat yuridik universiteti
 mustaqil izlanuvchisi,
 e-mail: fbi774@mail.ru,

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarning obyekti yuzasidan ayrim mulohazalar atroficha o'rganilib, tahlil qilingan. Davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarning maxsus obyektiga davlat mexanizmining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlar ham, o'z navbatida, JK bilan taqiqlangan muayyan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqarishi bir qator olimlarning ishlarini o'rgangan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xodimi, jinoyat, jinoyat obyekti, mulkiy manfaat, jamoat munosabatlari.

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К АНАЛИЗУ ОБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ИМУЩЕСТВЕННЫМИ ИНТЕРЕСАМИ ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Джалилов Фуркат Закирович,
 самостоятельный соискатель Ташкентского
 государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно изучаются и анализируются некоторые соображения об объекте преступлений, связанных с имущественными интересами государственных служащих. Особым объектом преступлений, связанных с имущественными интересами государственного служащего, следует рассматривать общественные отношения, обеспечивающие нормальное функционирование государственного механизма. Преступления, связанные с имущественными интересами государственного служащего, в свою очередь, были проанализированы путем изучения работ ряда ученых на предмет того, наносят ли они вред определенным общественным отношениям, запрещенным УК, или создают реальный риск такого ущерба.

Ключевые слова: государственный служащий, преступление, объект преступления, имущественный интерес, общественный отношения, ущерб.

SOME COMMENTS ON THE OBJECT OF CRIMES RELATED TO THE PROPERTY INTERESTS OF A CIVIL SERVANT

Djalilov Furkat Zakirovich,
 Independent researcher
 of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, some considerations on the object of crimes related to the property interests of civil servants are studied and analyzed in detail. A special object of crimes related to the property interests of a civil servant should be considered social relations that ensure the normal functioning of the state mechanism. Crimes related to the property interests of a civil servant, in turn, have been analyzed by studying the work of a number of scholars as to whether they harm certain social relations prohibited by the CC or pose a real risk of such damage.

Keywords: civil servant, crime, object of crime, property interest, public relations, damage.

Kirish

Ijtimoiy xavfli qilmishning jinoiyligini aniqlash, ya’ni uni kriminalizatsiya qilish vositasи faqat jinoyat tarkibi hisoblanadi. Jinoyat tarkibi esa jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilari yig’indisidan iboratdir. Obyektiv belgilar deganda, jinoyat tarkibining obyekti va obyektiv tomoni tushuniladi.

Jinoyat obyekti – bu jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo’lgan Jinoyat kodeksi bilan qo’riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir [1]. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog’liq jinoyatlar ham, o’z navbatida, JK bilan taqiqlangan muayyan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababdan JK 14-moddasi mazmudan kelib chiqib, bunday ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb topiladi. Shunday ekan, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog’liq jinoyatlarni yuridik tahlil qilishda, eng avvalo, ushbu toifadagi jinoyatlarning obyekti muammlarini chuqurroq o’rganish maqsadga muvofiq. Jinoyat obyekti yordamida jinoyat huquqining ijtimoiy-siyosiy mazmuni, tajovuz qilish ijtimoiy xavfliliginining xarakteri aniqlanadi [2].

R. Qobulovning ta’kidlashiga ko’ra, “jinoyatchi o’zini bunday munosabatlardan chiqarish yo’li bilan ham ijtimoiy munosabatlarni buzishi mumkin, ya’ni unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik yo’li bilan ijtimoiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi ijtimoiy aloqani uzadi” [3]. Bu fikrga qo’shilish mumkin, negaki davlat xizmatchisi o’z xizmat vazifasiga kiruvchi majburiyatni bajarmasdan davlat apparatining normal faoliyatiga putur yetkazadi.

Ayrim yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog’liq jinoyatning obyekti boshqaruв organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining obro’yi va normal ish faoliyati hamda fuqarolarning manfaatlaridir [4], deb fikr bildiriladi. Shuningdek, M.H. Rustambayev va B.D. Axrarov ham shunga yaqin fikr bildiradi, ya’ni ularning fikriga ko’ra, jinoyat obyekti – boshqaruв organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o’z-o’zini boshqarish organlarining obro’yi va normal faoli-

yat yuritishidir [5]. Ammo mazkur qarashlarni mufassal bayon etilgan, deb aytish qiyin. Sababi ushbu fikrlarda jinoyatning obyektni tasniflash masalasi e’tiborga olinmagan, ya’ni jinoyatning maxsus, turdosh va bevosita (bevosita asosiy va bevosita qo’shimcha) obyektlariga aniqlik kiritilmagan.

O’z navbatida, ta’kidlash lozimki, mazkur fikrlar O’zbekiston JKning 213-moddasida (2015-yilga qadar) javobgarlik belgilangan xizmatchini pora evaziga og’dirish jinoyatning obyekti yuzasidan bildirilgan. Bugungi kunda JKning 213-moddasida davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og’dirib olish uchun, 214-moddasida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo’lishi uchun javobgarlik belgilangan. Tub mohiyati, ushbu ikkita moddada 213-moddaning eski tahrirdagi qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo’lsa-da, yangi tahrirdagi moddalarda jinoyatning obyektida nisbatan o’zgarishlar yuzaga kelgan. Biz quyidagi ushbu moddalarda javobgarlik belgilangan jinoyatlarning yuridik tavsifini tahlil qilamiz. Bunda ushbu ikkita moddada javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlarga nisbatan davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog’liq jinoyat atamasini qo’llaymiz.

Shuni qayd etish lozimki, ayrim olimlar jinoyat qonunining bo’lim va boblari jinoyatning maxsus va turdosh obyektlariga ko’ra tuzilishi kerak [6], deb hisoblaydi. Shu o’rinda A.S. Yakubovning “JK Maxsus qismi tizimini tuzish uchun maxsus obyekt asos bo’lishi kerak” [7], degan fikri katta ahamiyatga ega. Ba’zilar JKning bo’limlari maxsus obyektga, asosan, bobি turdosh obyektga qarab, moddasi esa bevosita obyekti ko’ra tuzilishi kerak [8], deydi. N.I. Vetrovning fikriga ko’ra, JK Maxsus qismi normalari qilmishning maxsus obyekti asosan tizimlashtirilgan. Har bir bo’lim yoki hatto bob ham o’zining maxsus obyekti ega [9]. Bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchi tomonidan maxsus obyekti o’xshash bo’lgan jinoyatlar JK Maxsus qismi bo’limlariga, ular orasidan turdosh obyekti o’xshash bo’lgan jinoyatlar esa boblarga ajratib joylashtirilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, davlat xizmatchisining mulkiy manfaat-

dorligi bilan bog'liq jinoyatning maxsus obyekti hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari or-ganlarining faoliyati tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, turdosh obyekti esa boshqaruv tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir, degan dastlabki xulosani chiqarish mumkin. Umuman olganda, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyat davlat apparati doirasida amalga oshirilishini hisobga olsak, mansabdorlik jinoyatlari bilan, shuningdek, xizmat bilan bog'liq holda qonunga xilof ravishda haq olish-berish orqali amalga oshirilishini inobatga olsak, poraxo'rlik jinoyatlari bilan deyarli o'xshashdir. R.A. Zufarov ham davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlar va poraxo'rlik jinoyatlarini farqlash xususida fikr bildirib [10, 135-137-b.], mazkur jinoyatlar faqat jinoyat subyekti va poraning miqdori bilan farqlanishi, boshqa jihatdan jinoyatlar deyarli o'xshash ekanligini qayd etadi.

M.M. Qodirov mansabdorlik jinoyatlarining maxsus obyekti "davlat yoki jamoat apparatining qonunda belgilangan normal faoliyati yoki amal qilishi" [11], deb hisoblaydi. B.A. Ahmedovning fikricha, bunday jinoyatlarning maxsus obyekti "davlat apparati yoki jamoat tashkilotlarining normal faoliyatidir" [12]. Shuningdek, B.V. Zdravomislov ham shunga yaqin fikr bildirib, "davlat va uning apparatining normal faoliyatini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar" [13] bunday jinoyatlarning maxsus obyektini tashkil etishini ta'kidlaydi. Bu borada B.D. Axrarovning fikricha, "davlat apparatining davlat hokimiyati, davlat xizmati va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati yo'nalishlarining normal holatlari ta'minlanishi bilan birgalikda barcha mansabdorlik jinoyatlarining maxsus obyektini tashkil qiladi" [14, 41-b.]. Ammo biz ushbu fikrga qo'shila olmaymiz. Sababi davlat apparati – bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, muayyan tizimga birlashtirilgan va jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarishga safarbar etilgan davlat organlari majmuyidan iborat [15, 103-b.]. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida qayd etilishicha, davlat apparati (ing. machinery of government so'zi) – turlari va darajalariga bog'liq bo'lмаган holda davlatning barcha organlari tizimidir [16].

Ko'rinish turibdiki, davlat apparati deyilganda, asosan, davlat organlari tushuniladi. Ammo JKning 213- va 214-moddalarida davlat organidan tash-

qari davlat ishtirokidagi tashkilot va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchilari uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Shu sababdan davlat apparatining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar bu jinoyatning maxsus obyektini to'liq qamrab ola olmaydi.

Bizningcha, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatlarning maxsus obyektiaga davlat mexanizmining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida qaralishi lozim.

Davlat mexanizmi – bu davlat hokimiyati, uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarining yaxlit iyerarxik (pog'onaviy) tizimidir. Qolaversa, ayrim olimlarning fikricha, "davlat mexanizmi" tushunchasi "davlat apparati" tushunchasidan kengroq, aniqrog'i, davlat apparati, asosan, o'z ichiga faqat davlat organlari tizimini olsa, davlat mexanizmi esa o'z ichiga davlat organlaridan tashqari, yana kuch ishlatishga vakolatli maxsus tuzilmalar, majburlov apparati, davlat hokimiyatining moddiy vositalarini ham qamrab oladi [17].

Davlat organi – bu ijtimoiy hayotning aniq bir sohasini boshqarish yuzasidan davlat vazifalarini bajaradigan va tegishli davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa [18]. Davlat organi deganda, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, sud va prokuror nazorati organlari jamuljam holda tushuniladi [15, 125-b.].

Davlat ishtirokidagi tashkilot – ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot [20].

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi – shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlaridir [21]. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi. Bu institut jamiyat, shaxs ijtimoiy rivojlanishining zaruriy xususiyati bo'lib, uning tashkil etilishi jamiyat, shaxs, insonning tabiiy rivojlanishi, xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarni mustaqil ravishda hal qilish, xalq orasidan ishonchli vakillarni mus-

taqil tavsiya etish huquqlarini ta'minlashning gavrovi sifatida vujudga keldi [22]. B.D. Axrarovning fikricha, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruvidan mustaqil ravishda o'z faoliyati, boshqaruv tizimi, mulkiy masalalarni mustaqil tarzda hal qiladi. Lekin mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatlarini aholining huquq va ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq davlat boshqaruv tizimi vakolatlaridan kelib chiqqanligi uchun, shuningdek, davlat boshqaruv, hokimiyat vakolatlarining mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshirilganligi uchun ham bunday tashkilotlar rahbar shaxslarining vakolatlari mansabдорлар vakolatlariga tenglashtiriladi [14, 42-b.]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabдор shaxs bo'lмаган xizmatchilariga ham davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning subyekti sifatida qarash o'rinnlidir.

Shuningdek, yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning turdosh obyekti xususida ham yakdil fikr mavjud emas.

M. Kojevnikov, P. Latover, A.A. Jijilenko, S.A. Golunskiy xizmat burchini bunday jinoyatlarning turdosh obyekti deb hisoblagan. M. Kojevnikova va L. Lagovler yozganlaridek, "mansab bo'yicha jinoyat – bu xizmatchi tomonidan xizmat burchi, xizmat vazifalarining buzilishidir" [24]. A.A. Jijilenko "mansab (xizmat) bo'yicha jinoyatni mansabдор shaxs (xizmatchi) tomonidan vazifalar buzilishini, o'z xizmatini ado etish burchining buzilishi" [25], deb ta'riflagan. Ammo xizmat burchiga davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning obyekti sifatida qarash mumkin emas. Sababi bu tushuncha mavhum va noaniqidir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilishicha, burch – bu ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa; majburiyatdir [26]. Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalanadi [27]. Ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi [34-40]. Burch imon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas

bog'liq. Xizmat burchi tushunchasi xizmatchini pora evaziga og'dirish qanday ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishini, bunday qilmishlar orqali keltiriladigan zarar nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur etish imkonini bermaydi. Burchning o'zi ta'sir ostiga olinmaydi, unga qandaydir zarar yetkazilishi mumkin emas. Qolaversa, N.P. Kucheryaviy ta'kidlaganidek, xizmat burchi – bu ma'naviy tushuncha, shuning uchun ham har qanday ma'naviy burchning buzilishi ham jinoiy jazoga loyiq bo'lavermaydi [28]. Shuni e'tiborga olgan holda, professor R.A. Zufarov haqli ravishda xizmat burchi boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat obyekti deb e'tirof etilishi mumkin emas [10, 21-b.], deb qayd etadi.

B.D. Axrarovning qayd etishicha, boshqaruv tartibiga qarshi mansabдорlik jinoyatlari obyektni tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmunga qator zaruriy elementlar kiradi: a) ijtimoiy munosabatning moddiy yoki moddiy bo'lмаган foyda keltiruvchi vositasi (shaxs manfaatlari, davlat xizmati faoliyatida davlat organlari va ularning xizmatchilari munosabatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar va hokazolar); b) turli xildagi ijtimoiy manfaatlarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari (korxona, tashkilot yoki muassasalarda xizmat qilish); d) davlat organi va uning xizmatchisi o'rtasidagi munosabatlar, hokimiyat vakili va fuqaro o'rta-sidagi munosabat va hokazolar; ijtimoiy munosabatlar taraflari o'rtasidagi bog'liqlik (xizmatchi, hokimiyat organi, mansabдор, jismoniy va yuridik shaxs va hokazolar) [30].

Darhaqiqat, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar natijasida bunday munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, hatto butunlay tugatilishiga olib kelishi mumkin, bu esa davlat boshqaruvi tizimi xususiyatlarining susayishiga olib keladi. Davlat tomonidan o'zlariga ishonch bildirilganiga qaramay, vijdonsizlik yo'liga o'tib, o'zlarining tamagirlilik maqsadlariga erishish uchun davlat va jamiyatning obro'yini to'kadir [31].

R.A. Zufarovning qayd etishicha, davlat intizomiga qat'iy rioya qilishga, qonunlar hamda fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari va manfaatlariga qat'iy rioya qilishga asoslangan faoliyat to'g'ri hisoblanadi. Aynan turdosh obyektni, davlat, kooperativ, xususiy yoki boshqa muassasa, korxona, tashkilotning to'g'ri

ishlashi hisobga olingan holda, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyat boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar bobiga kiritilgan [10, 25-b.].

Yuqorida qayd etilgancha asoslanib, aytish mumkinki, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning turdosh obyekti davlat mexanizmida boshqaruv tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

M.M. Qodirovning fikricha, tahlil qilinayotgan jinoyatning bevosita obyekti hokimiyat, boshqaruv organlari va jamoat birlashmalari faoliyatining tartibi hisoblanadi. Ammo bunday fikrga qo'shilish qiyin. Chunki faqat ijtimoiy munosabatlar jinoyat obyekti bo'lishi mumkin. Qolaversa, M.M. Qodirov tomonidan keltirilgan izoh tahlil qilinayotgan jinoyatning bevosita obyekti sifatida qaralishi mumkin emas, uning izohi umumiylashtida bo'lib, jinoyat bevosita ta'sir etadigan holatlardan e'tiborga olinmagan.

Professor M.H. Rustambayevning qayd etishicha, davlat xizmatchisini pora evaziga og'dirishning bevosita obyekti boshqaruv organlari, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining obro'yi va normal ish faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning bevosita qo'shimcha obyekti esa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlaridir. Ammo mazkur izoh ham mufassal emas.

Sababi nazariy jihatdan bevosita obyekt ham, o'z navbatida, bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha obyektlarga ajratiladi.

Pora, davlat xizmatchisiga beriladigan har qanday qonunga xi洛f haq davlat apparati obro'siga putur yetkazadi, uni obro'sizlantiradi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yozilishicha, obro' – ja-moatchilik qoshida topilgan e'tibor, hurmat, nu-fuzdir [29]. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ham "obro" so'zi tojik tilida izzat-hurmat ma'nosi anglatadigan "ob" otiga yuz ma'nosini anglatadigan "ro'(y)" otini qo'shib tuzilgan bo'lib, jamoat oldida qozonilgan hurmat-e'tibor ma'nosini anglatishi qayd etilgan [23]. Demak, obro' – bu baholash kategoriyasidir. U o'z-o'zidan ijtimoiy munosabat hisoblanmaydi. Shuning uchun ham Y.I. Lyapunov haqli ravishda ta'kidlaganidek, obro'ning o'zi jinoyat obyekti bo'lishi mumkin emas [19].

Bizning fikrimizcha, davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi bilan bog'liq jinoyatning bevosita asosiy obyekti davlat organining, davlat ishtiroyidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining obro'yi va normal ish faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning bevosita qo'shimcha obyekti esa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlaridir.

REFERENCES

1. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Maxsus qism. Jinoyat to'g'risida ta'limot. Darslik [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. I tom. Special section. The doctrine of crime. Textbook]. Tashkent, Ilm ziyo, 2011, p. 139.
2. Jakubov A.S. Uchenie o prestuplenii po zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [Study on the provisions of the legislation of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1995, p. 55.
3. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik [Criminal law. General section: Textbook]. A.S. Yakubov, R.Kobulov va boshq. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005, p. 123.
4. Jinoyat huquqi: Darslik [Criminal law. Textbook]. M.H. Rustambayev, F. Toxirov, A.K. Erkaxodjaev, H.B. Boboev. Ed. Y.M. Karaketov. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000, p. 319.
5. Rustambayev M.H., Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. O'quv qo'llanma [Qualification of offenses against the order of management. Study guide]. Tashkent, TSUL, 2006, p. 44.
6. Ugolovnoe pravo Rossijskoj Federacii. Osobennaja chast'. B.V. Zdravomyslov, V.F. Karaulov i dr.; Pod red. prof. B.V. Zdravomyslova [Criminal law of the Russian Federation. The special part. V.V. Zdravomyslov, V.F. Karaulov and others; Ed. prof. V.V. Zdravomyslova]. Moscow, Jurist, 2000, p. 18.

7. Jakubov A.S. Predposylki ugolovno-pravovoj reformy v Respublike Uzbekistan [Preconditions for criminal law reform in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1994, p. 47.
8. Ugolovnoe pravo Rossiskoj Federacii. Obshchaja chast'. S.V. Afinogenov, L.D. Ermakova i dr.; Pod red. prof. B.V. Zdravomyslova [Criminal law of the Russian Federation. A common part. S.V. Afinogenov, L. D. Ermakova and others; Ed. prof. V.V. Zdravomyslova]. Moscow,, Jurist, 1999, pp. 112-113.
9. Vetrov N.I. Ugolovnoe pravo. Obshchaja chast' [Criminal law. a common part]. Moscow, Juniti, 1999, p. 114.
10. Zufarov R.A. Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik. Monografiya. Mas'ul muharrir M.H.Rustambaev [Criminal liability for bribery. Monograph. Responsible editor M.H. Rustambaev]. Tashkent, TSUL, 2004, pp. 135-137.
11. Kadyrov M.M. Ugolovnoe pravo Respublikni Uzbekistan. Osobennaja chast'. Uchebnik [Criminal law of the Republic of Uzbekistan. The special part. Textbook]. Tashkent, Adolat, 1997, pp. 252-253.
12. Sovet jinoyat huquqi. Maxsus qism. Darslik. B.A .Ahmedov, B.A. Blinder, S.G. Zakutskiy va boshq. Mas'ul muharrir B.A. Ahmedov [Soviet criminal law. Special section. Textbook. B.A. Ahmedov, B.A. Blinder, S.G. Zakutsky et al. Editor-in-Chief B.A. Ahmedov]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1983, p. 164.
13. Zdravomyslov B.V. Dolzhnostnye prestuplenija. Ponjatie i kvalifikacija [Official crimes. Concept and qualifications]. Moscow, Jurid. lit. Publ., 1975, pp. 9-13.
14. Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari. Yu.f.d. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. [Problems of liability for official crimes against management order] Tashkent, TSUL, 2008, p. 41.
15. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir B. Mustafoev [Constitutional law. Encyclopedic Dictionary. Responsible editor B. Mustafoev]. Tashkent, Uzbekiston Publ., 2006, p. 103.
16. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul: R.A. Muhiddinov va boshq. Mas'ul muharrir N. Toychiyev [Encyclopedia of Law of Uzbekistan. Responsible for publication R.A. Muhiddinov et al. Responsible editor N. Toychiev]. Tashkent, Adolat, 2009, p. 99.
17. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Norma, 2002, p. 157.
18. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Mas'ul muharrir N. Toychiyev [Encyclopedia of Law of Uzbekistan. Responsible editor N. Toychiev]. Tashkent, Adolat, 2011, p. 109.
19. Ljapunov Ju.I. Otvetstvennost' za vzjatku [Responsibility for a bribe]. Moscow, Znanie Publ., 1987, p. 15.
20. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-son qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda [Law of the Republic of Uzbekistan "On appeals of individuals and legal entities", approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2017 No. ZRU-445. Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 37, Article 977].
21. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi O'RQ-350-son qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 17-son, 219-modda [Law of the Republic of Uzbekistan "On citizens' self-government bodies", approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated April 22, 2013 No. ZRU-350. Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2013, No. 17, Article 219].
22. Irgashev R. Problemy gosudarstvennoj sluzhby i pravovogo statusa gosudarstvennyh sluzhashhih [Problems of civil service and the legal status of civil servants]. Huquq va burch – Law and duty. Tashkent, 2007, no. 7, pp. 58-59.
23. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: forscha, tojikcha birikmalar va ular bilan hosilalar [Etymological dictionary of Uzbek language: Persian, Tajik compounds and their derivatives]. Tashkent, Universitet, 2009, p. 167.
24. Kozhevnikov M., Lagovler L. Dolzhnostnye prestuplenija i bor'ba s nimi [Official crimes and the fight against them]. Moscow, Jurid. lit., 1925, p. 17.
25. Zhizhilenko A.A. Dolzhnostnye (sluzhebnye) prestuplenija. Prakticheskij kommentarij [Official (service) crimes. Practical comment]. Moscow, Jurid. lit., 1927, pp. 3-13.
26. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. T. 1. A-D. Tahrir hay'ati T. Mirzayev va boshq. [Annotated Dictionary of the Uzbek Language: More than 80,000 words and phrases. A-D. Editorial Board T. Mirzaev et al.]. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, vol. 1, p. 384.
27. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. A.A. Azizzxo'jayev, F. Abdumajidov, M.A. Ahmadshaeva va boshq. Mas'ul muharrir A.A. Azizzxo'jayev [Commentary to the Constitution of the Republic of Uzbekistan. A.A. Azizkhojaev, F. Abdumajidov, M.A. Ahmadshaeva et al. Editor-in-Chief A.A. Azizkhojaev]. Tashkent, Uzbekiston, 2008, p. 194.

28. Kucherjavyj N.P. *Otvetstvennost' za vzjatochnichestvo* [Responsibility for bribery]. Moscow, 1957, p. 47.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. T. 3. N-Tartibli. Tahrir hay'ati T. Mirzayev va boshq [Annotated Dictionary of the Uzbek Language: More than 80,000 words and phrases. N. Editorial Board T. Mirzaev et al.]. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, p. 75
30. Axrarov B.D. *Mansabdorlik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik*: Monografiya. Mas'ul muharrir M.H. Rustambayev [Criminal liability for official crimes: Monograph. Responsible editor M.H. Rustambeaev]. Tashkent, Adolat, 2007, p. 83.
31. Zufarov R.A. *Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlikni erkinlashtirish jarayoni va Konstitutsiyaning ahamiyati. Davlat va huquq* [The process of liberalization of criminal liability for bribery and the importance of the constitution State and law]. Tashkent, 2002, no. 4 (12), p. 72.
32. Khamidov N. *Transmilliy jinoyatlar tushunchasi va ular uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zarurati* [The concept of transnational crime and the social necessity of defining responsibility for them]. 2020, pp. 1-10.
33. Hamidov N. *Ponjatie transnacional'nyh prestuplenij i social'naja neobhodimost' ustanovlenija otvetstvennosti za nih* [The concept of transnational crimes and the social need to establish responsibility for them]. Review of law sciences, 2020, vol. 5, Special issue.
34. Salaev N., Khamidov N. Qualification of smuggling: uzbek legislation and foreign experience ilkogretim online. 2021, vol. 20, no. 3.
35. Khamidov N. et al. Criminal-legal aspects of the drug abuse in some countries and imposed approaches against it. International Journal of Legal Studies (IJOLS), 2018, vol. 4, no. 2, pp. 177-183.
36. Salaev N. The issue on implementing the recommendations of international standards on certain categories of convicts in uzbekistan. Zhurnal pravovyh issledovanij – Journal of legal research, 2020, vol. 5, no. 5.
37. Salaev N. Penitentiary system of contemporary Uzbekistan: current condition and future promises in the reformation process. Review of law sciences, 2018, no. 2.
38. Nodirbek S., Law D.I. Preventive legal status of convicts in the penitentiary system of Uzbekistan.
39. Salaev N.S. *Ugolovnoe nakazanie: popytka social'no-filosofskogo osmyslenija ili problema, ne reshennaja vekami?* [Criminal punishment: an attempt at socio-philosophical understanding or a problem that has not been solved for centuries?]. 2016.
40. Salaev N. Differentiation, individualization, execution of criminal punishments and its goals: way to success. Review of law sciences, 2017, vol. 1, no. 1, p. 25.
41. Ahmedshaeva M.A. *Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari. O'quv qo'llanma*. Mas'ul muharrir yu.f.d. prof. Z.M.Islomov [Problems of modern state and law theory. Study guide. Responsible editor prof. Z.M. Islomov]. Tashkent, TSUL, 2009, p. 55.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.